

YAQIN SHARQDA “XORAZMLIKLAR”NING SIYOSIY KUCH SIFATIDA TUGATILISHI VA TARIXIY TAQDIRI XUSUSIDA

Orziyev Mahmud

t.f.f.d. (PhD), dotsent

Mahmudova Shohida

Buxoro davlat universiteti magistranti

Abstract: Salibchilar va ularni qo‘llab-quvvatlagan mahalliy hukumdorlar “Xorazmliklar” yordamida tor-mor keltirilgach, ittifoqchilar o‘rtasida kelishmovchiliklar yuzaga kelgan.

Bunga sabab, 1245-yilning birinchi oktabrida Damashq shahrining ishg‘ol etilishi va “Xorazmliklar”ning shaharga g‘olib sifatida kirishga yo‘l qo‘yilmaganligi bahona bo‘lib xizmat qilgan. Bu ularning harbiy xizmatlarini e‘tiborsiz qoldirish va munosib ravishda taqdirlanmaganliklari ziddiyatning o‘zagi bo‘lib xizmat qilgan. Chunki, aynan “Xorazmliklar”ning harbiy faoliyati natijasida Damashq hukumdori faqat o‘zi va mol-mulklari bilan shahardan erkin chiqib ketib, Baalbek shahriga ketishga rozi bo‘lgan [4. C - 193].

As-Solihdan norozi bo‘lgan “Xorazmliklar” o‘lja topish maqsadida yangi kurashlarga otlanganlar. Ayubiyulardan bo‘lsada, Misrga hali qaram bo‘lmagan Kerak shahri hokimi an-Nosir va Misr hukmdori Malik as-Solihning markaziy hokimiyatga qarshi chiqish istagida bo‘lgan sarkardasi tutib turishga intilib, O‘rta yer dengizi qirg‘og‘idan iq‘to sifatida hudud berishni va‘da qilgan. undan so‘ng as-Solihga itoat etishdan butunlay bosh tortganlar[8. 378]. Ittifoqchilar o‘rtasida as-Solih qudratli hukumdorga aylangan bo‘lib, uning davlati iqtisodiy va harbiy jihatdan “Xorazmliklar”dan bir necha barobar qudratli bo‘lib olishga ulgurgan. Shuningdek, ijtimoiy jihatdan Yaqin Sharqda “Xorazmliklar”ni qo‘llab-quvatlovchi guruhlarining bo‘lmaganligi ham ularning vaziyatini yomon tomonga o‘zgarishiga sabab bo‘la boshlagan. “Xorazmliklar” orasida harbiy jihatdan shuhrat qozongan as-Solih sarkardalaridan Rukniddin Beybars bo‘lib, u ham “Xorazmliklar” bilan iliq munosabatda bo‘lgan[5. 66]. Bundan tashqari uning turkiy qabilalardan ekanligi ham o‘zaro qo‘shinning birlashuvi o‘z saltanatining tugashini anglatishini yaxshi tushungan. Misr hukumdori as-Solih bunday birlashuvga yo‘l qo‘ymaslik uchun Rukniddin Beybarsni Qohiraga hiyla bilan chaqirtirib olgan. Bu yerda runiddin Beybars as-Solih buyrug‘iga ko‘ra qo‘lga olib zindonga tashlangan. Beybarsning harbiy qo‘shin, jumladan, turkiylardan tuzilgan qo‘shinning asosini tashkil

yetakchisiz qoldirib, ularni falaj bir holatga solib qo'yishga muvoffaq bo'lgan deb xulosa chiqarishga

Shundan so'ng "Xorazmliklar" as-Solihga qaram bo'lmagan ayubiylardan Kerak viloyati hukumdori al-Malik an-Nosirga o'z xizmatlarini taklif etganlar. Uning xotini Xorazmliklar yerda nikoh va qarindoshchilik rishtalaridan ko'ra, toju-taxt uchun kurash birinchi o'ringa turgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Ittifoqchiga ega bo'lgan va harbiy aslahalar, moddiy ta'minot bilan ta'minlangan "Xorazmliklar" Quddus va Nablus shaharlarini qisqa fursatda egallashga muvoffaq bo'lganlar. Shundan so'ng Misr hukumdori as-Solihga qarshi kurashda ittifoqchilar salmog'ini ko'paytirish maqsadida 1245-yil birinchi oktabrda o'zlari Damashqdan Baalbekka quvib yuborgan sobiq Damashq hokimini ham o'zlari tomonga o'tishiga erishganlar. Ittifoqchilarning birlashgan qo'shinlari Damashq shahriga qarab yurgan[1. P - 137]. Bu yerdagi Misr qo'shinlari salmog'i qamali uch oy davom etgan bo'lib, bu orada Misr hukumdori As-Solih ayubiylar sulolasining yetakchi vakili sifatida o'z saltanatlarini saqlab qolish uchun barcha ayubiylarni birlashishlari to'g'risida murojaat qilib ularni "Xorazmliklar"ga qarshi birlashishni taklif etishga ulgurgan. Uning murojaatiga binoan Xalab va Xoms shaharlari hokimlari as-Solih bilan ittifoqqa birlashgan. Katta harbiy qudratga ega bo'lgan qo'shinning yaqinlashishi bilan "Xorazmliklar" va ularning ittifoqchilari Damashq qamalini to'xtatishga majbur bo'lganlar[4. C - 194].

Misr sultoni as-Solih va uning ittifoqchilari "Xorazmliklar" va ularning ittifoqchilarini butun Suriya hududi bo'ylab ta'qib etganlar. Endilikda ularning chekinishi uchun biror yer qolmagan. Har ikki tomon ittifoqchilar hal qiluvchi jangga tayyorgarlik ko'ra boshlaganlar. Tarixiy adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlarda "Xorazmliklar" va ularning ittifoqchilari bilan ayubiylarning birlashgan Jangda "Xorazmliklar"ning ittifoqchilari dushman hujumiga bardosh bera olmay qochgan. Dastlab, Karak hukmdori qo'shinlari, shundan so'ng Damashq hukumdori qo'shinlari dushmanlar tazyiqi ostida qochishga tushganligi, ittifoqchilarning irodasizliklari jang taqdirini hal qilib bergan. Chekinish imkoniyati va bundan so'ng boradigan joylari bo'lmagan "Xorazmliklar" qattiq qarshilik ko'rsatishiga qaramasdan mag'lubiyatga uchragan. Jangda "Xorazmliklar"ning bosh sarkardasi Xusomiddin Barokotxon o'ldirilgan. Uning kesib olingan boshi Xalab ko'chalarida odamlarga namoyish etilgan. Asir olingan "Xorazmliklar" esa, Ayubiylar tomonidan kichik-kichik guruhlariga bo'linib, shu yili Suriya, Misr, Livanning turli hududlariga qattiq nazorat ostida tarqatib yuborilgan[2. bilan alohida puxta o'ylangan reja deb xulosa chiqarish mumkin.

Mag'lubiyatga uchragandan so'ng, bir qism Xorazmliklar Karak shahri hokimi bilan Xalab shahriga yo'l olganlar. Halab hokimi o'z qarindoshi al-Malik an-Nosirni yaqindagina dushman askarlarni qo'lga olish to'g'risida buyruq bergan. Shundan so'ng asirga tushishni istamagan muvoffaq bo'lganlar. Itoatsiz qarindoshni jazolash, "Xorazmliklar"ni harbiy va siyosiy kuch sifatida butunlay tugatishga kirishgan Ayubiylarning birlashgan qo'shinlari Karak shaharni qamal qilib, ushbu mustaqil hokimlikni tugatishga kirishganlar. Hatto, al-Malik an-Nosirning hayoti xavf ostiga qolgan. O'z jonidan xavotirga tushgan al-Malik an-Nosir "Xorazmliklar"ni as-Solihga topshirish orqali

o'rtadagi muammoni hal qilishga uringan va ittifoqchilariga xiyonat qilgan[6. C - 611]. "Xorazmliklar" so'nggi bora 1246-yil birinchi sentabrda raqiblari bilan yengilishlari aniq bo'lib birlashishlarini oldini olish maqsadida ularning barcha yetakchi sarkardalari qatl etilgan. Faqatgina, "xorazmliklar"ning Kuchluxon ismli sarkardasi boshchiligidagi kam sonli askarlar Ayubiyalar qurshovini yorib chiqishga va dushman ta'qibidan qochishga muvaffaq bo'lib, Erondagi elxoniy mo'g'ullar xizmatiga o'tganligi tarixiy adabiyotlarda keltirib o'tilgan[7. C - 378].

Yaqin Sharq tarixida "xorazmliklar" va Xorazmshohlar faoliyati shu bilan tugamagan. Misr tarixiga oid adabiyotlarda bu xususda yana qator ma'lumotlarni uchratish mumkin. Ushbu ma'lumotlar orasida Misr sultoni Qutuz bilan bog'liq ayrim fikrlarni keltirib o'tmoqchimiz. Tarixiy nevarasi bo'lganligi keltirib o'tilgan. Qutuz hali yoshlik chog'idayoq mo'g'ullar tomonidan Damashqda qul qilib sotilganligi va Misr sultoni Izzuddin Oybek tomonidan qul sifatida sotib olinganligi, Qutuz o'zining jangovar qobiliyati bilan alohida ajralib sulton Oybekning e'tiboriga tushganligi, keyinchalik Oybekning eng e'tiborli sarkardalaridan biriga aylanganligi, shuningdek, Oybek vafotidan so'ng, Qutuz dastlab, Oybekning taxt vorisi hisoblangan yosh shahzoda Malik al-Sayfuddin Qutuz nomi bilan o'zi taxtga o'tirganligi va 1260-yilgacha hukmronlik qilganligi bilan bog'liq fikrlar mavjud[2. P - 674]. Qutuz taxtni egallab turgan vaqtda uning qo'lga kiritgan yutug'i sifatida mo'g'ullarning Yaqin Sharqda mag'lub etilganligini ko'rsatish mumkin. 1259-yili mo'g'ullarning Erondagi Xulagular sulolasi asoschisi Xulaguxon elchilarining Misr hukmdori Qutuz Misrga harbiy yurish tashkillashtirishiga sabab bo'lgan[5. B - 66].

Kelib chiqishi Xorazmdan bo'lgan sulton Qutuz Halab tomon intilayotgan mo'g'ullarning Kit Buqa boshchiligidagi saralangan qo'shinlarini Ayn Jalut jangida butunlay tor-mor keltirgan. Ayn-Jalud jangi 1260-yil to'rtinchi aprelida bo'lib o'tgan va mo'g'ullar mag'lubiyatga uchratilgan. Asir olingan barcha mo'g'ul sarkardalari qatl etiladi. Bu esa mo'g'ullarning yengilmas degan tushunchaning barbod bo'lishiga sabab bo'lgan. Chunki, Yaqin Sharqda hali hech bir siyosiy va harbiy kuch mo'g'ullarni mag'lubiyatga uchrata olmagan. Ushbu jang mo'g'ullarni Yaqin Sharq va Misr tomon yurishlariga chek qo'ygan. Ammo, ayni shu g'alaba Qutuzga ham qimmatga tushdi. Uning az-Zohir Beybars ismli turk sarkardasi Halab noibi bo'lishdan umidvor bo'lgan bo'lib, Qutuzning unga Halabni bermaganligi az-Zohir Beybars tomonidan uyushtirilgan fitna qurboni bo'lishiga sabab bo'lgan[1. P - 35, 47]. Al-Makrizi yozib qoldirgan ma'lumotlarga qaraganda, Sulton bo'lgan. Mo'g'ullardan o'ziga xos o'ch olish maqsadida Qutuz Ayn-Jalud jangida asir olgan mo'g'ullarni o'zi qul qilib sotilgan Damashqqa keltirib, ularni ham aynan shu yerdagi bozorda sotib

y

u

b "Xorazmliklar" bilan bog'liq so'nggi ma'lumotlardan biri Erondagi elxoniy mo'g'ullar xizmatida bo'lgan Shamsiddin Bahodir ismli amaldorning Misr sultoni az-Zohir Beybars bilan aloqa o'rnatganligi natijasida xoin sifatida qo'lga olinib, jazoga tortilishi ko'zda tutilganligi, ammo u Misrga az-Zohir Beybars huzuriga qochishga muvaffaq bo'lganligi, uning otasi ham Xorazmshoh Jaloliddin Manguberdi qo'shinida xizmat qilgan sarkardalardan biri bo'lganligi bilan bog'liq fikrlar keltirib o'tilganligi tarixiy adabiyotlardagi ma'lumotlar tasdiqlaydi[1. P - 133].

uning oxirlaridan boshlab esa tarixiy manba va adabiyotlarda "xorazmliklar" bilan bog'liq ma'lumotlar tobora kamayib, ularning mahalliy aholi bilan assimiliatsiyalashuvi kuchayib borganligini ko'rishimiz mumkin. Xorazmliklarning avlodlari Misr, Suriya, Iroq va janubiy-g'arbiy

i

b

i

1

Onado‘li hududlariga tarqalib ketganlar. Keyinchalik Suriya, Falastin hududlariga tarqatib yuborilgan “Xorazmliklar”ning bir qismi mahalliy aholi bilan aralashib ketgan bo‘lsa, bir qismi ayubiyalar tomonidan o‘tkazilayotgan zulmdan norozi bo‘lib, etnik jihatdan qarindoshlari bo‘lgan saljuqiylar yerlariga qochib ketish jarayonlari ham sodir bo‘lgan. Iroqning shimolida “Xorazmliklar”ning avlodlari Mosul va Kirkuk viloyatlaridagi qishloqlar tashkil etib, o‘zlarini turkman deb atab yashab

Hozirgi turkiyaning Onado‘li yarim orolining janubiy-g‘arbiy qismlarida esa, “Xurzumlu”, “Xurzum” nomi bilan ataluvchi qishloqlarda Xorazmlik askarlarning avlodlari yashab kelmoqdalar. Tarixiy manbalarni, xususan ibn Bibi ma’lumotlarini tadqiq qilib, Ziyoy Bunyatov ushbu qishloqlarni paydo bo‘lishiga Jaloliddin Manguberdi vafotidan keyin Koniya sultoni Alouddin Qayqubod I xizmatiga o‘tgan Xorazmlik sarkarda Sauronxon va uning qo‘l ostida xizmat qilgan Xorazmliklar asos solgan, degan fikrlarni keltirib o‘tgan. Shuningdek, Turkiya tarixchilari tadqiqotlari haqida ma’lumot berib, Sauronxon keyinchalik Turkiya tarixida Manisa viloyatida 1412-yilgacha hukmronlik qilgan alohida sulola sauroniylar sulolasini ham Sauronxon avlodlari tashkil etgan degan fikr-mulohazalarni keltirib o‘tgan. shuningdek, Onado‘li yarim orolining sharqiy qismida qishloqlarning nomlari “Xorzem ashirei”, “Ovachik”, “Xorzom Alayaka”, “Xorzom Sazderi”, “Xorzom keserler”, “Xorzom-i Enbeli” va boshqa nomlar bilan atalgan. Bundan tashqari Urfa viloyatida uchta “Xorazm” deb nomlanuvchi qishloq bo‘lib, ular Suriya hududidan ayubiyalar zulmidan norozi bo‘lib qochib kelganlar avlodlari bo‘lib hisoblanadi[4. - 195].

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, “Xorazmliklar” va ularning Yaqin Sharq xalqlari tarixidagi tutgan o‘rni o‘ziga xos murakkab davrga to‘g‘ri kelganligi, bu davrda nafaqat siyosiy-harbiy, balki ijtimoiy-madaniy, diniy omillarning ham ziddiyatli, ayni vaqtda shiddatli kechganligi, ushbu voqealarda “Xorazmliklar”, ya’ni yurtimiz aholisining ham faol ishtiroki masallalarini yangicha nuqtai-nazardan, milliy istiqlol mafkurasi, tarixiylik, haqqoniylik, adolatlilik prinsiplari asosida o‘rganish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri, deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abulafia D. The new Cambridge medieval history. Vol. 5, c. 1198 – c. 1300. – Cambridge. Cambridge University press, 1999. – p. 711.
2. Amitai-Preiss R. Mongols and Mamluks: the Mamluk–Ilkhanid War, 1260–1281. Cambridge: Cambridge University Press, 1995. – p. 147.
3. Holt P. M. Lambton A. K. S. Lewis B. The Cambridge history of islam. Vol. 1A, The Central islamik lands from pre – islamik Times to the first world war. - Cambridge. Cambridge University press, 1970. – p. 158.
4. Буниятов З. М. Государство Хорезмшахов – Ануштегинидов. 1097 – 1231. – М.: Наука, 1986. – 252 с. (Buniyatov Z. M. Gosudarstvo Xorezmshahov – Anushteginidov. 1097 – 1231. – М.: Nauka, 1986. – 252 s.)
5. Орзиев М.З., Латипов Ж.Л. Салиб юришлари ва унга қарши курашда-“Хоразмликлар” фаолияти Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги, Ўзбекистон Республикаси Президентининг-Истеъдод жамғармаси, Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси фан ва технологияларни ривожлантиришни мувофиқлаштириш қўмитаси, “Камолот” ёшлар ижтимоий ҳаракати марказий кенгаши, Бухоро муҳандислик-технология институти томонидан ўтказилган “XXI аср-интеллектуал авлод асри” ҳудудий илмий-амалий анжумани тўплами (2015 йил 5-6 июнь) – Бухоро. 2015. – 63-66 б. (Orziyev M.Z., Latipov J.L.

Salib yurishlari va unga qarshi kurashda-“Xorazmliklar” faoliyati O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining-Iste’dod jamg‘armasi, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo‘mitasi, “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati markaziy kengashi, Buxoro muhandislik-texnologiya instituti tomonidan o‘tkazilgan “XXI asr-intelektual avlod asri” hududiy ilmiy-amaliy anjumani to‘plami (2015-yil 5-6-iyun) – Buxoro. 2015. – 63-66 b.)

6. Хилленбранд К. Крестовые походы. Взгляд с Востока: мусилманская преспективо/пер. с англ. – СПб.: “Издательство “ДИЛЯ”, 2008. – 672 с. (Xillenbrand K. Krestoviye poxodi. Vzglyad s Vostoka: musulmanskaya prespektivo/per. s angl. – SPb.: “Izdatelstvo “DILYA”, 2008. – 672 s.)
7. Шаҳобиддин Муҳаммад ан-Насафий. Султон Жалолиддин Мангуберди ҳаёти/Матёқубов тарж./ - Т.: O‘zbekiston, 2006. – 384 б. (Shahobiddin Muhammad an-Nasafiy. Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti / Matyoqubov tarj. / - T.: O‘zbekiston, 2006. – 384 b.)